

YOSHLAR TARBIYASIDA TEATR SAN'ATINING O'RNI

Sultonov Dostonbek

O'zDSMI FMF "Dramatik teatr

rejissorligi" 2-bosqich talabasi

E-mail: sultonovdoston07@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada teatr san'ati, uning yurtiinidagi o'rni, hamda teatrning yoshlar tarbiyasidagi o'rni haqida so'z boaradi.

Kalit so'zlar. teatr, sahna asarlari, integratsiya, ta'lif, estetik tarbiya, madaniy faoliyat, innovatsiya.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 26.05.2020 yildagi PF-6000-sonli "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari" 1 to'g'risidagi Farmoni Madaniyat va san'at sohasi vakillari tomonidan qizg'in kutib olindi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti vahavaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Teatr "yunoncha – tomoshagoh" cheklangan joyda bir yoki bir necha aktyorlar ifoda etadigan tomosha orqali fikr beruvchi san'at janridir. Ba'zan teatr tomoshalari o'tkaziladigan binolarni ham teatr deb atashadi (aslida ularni teatr binosi deb atash o'rinci).

Teatr – san'at turi; uning o'ziga xos ifoda vositasi aktyorning omma oldidagi o'yini jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeadir. Teatr san'atida ham boshqa san'atlarda bo'lganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma'naviyati, madaniyati bilan bog'liq holda o'zgarib, takomillashib boradi. Teatr sintetik san'at bo'lib, jamiyat hayotida, tomoshabinlarning ma'naviy va estetik tarbiyasida muhim o'rinni tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at, raqs, me'morlik ajralmas birlikni tashkil etadi. Teatrning muhim vositalaridan biri sahna nutqidir. Aktyor qahramonning pesadagi so'zlarini o'zlashtirib olar ekan, qahramon qiyofasida, holatlarda turib uning nutqiy tafsifini yaratadi, boshqa personajlar bilan muloqotga kirishadi. Sahna nutqi xarakterlarning ochilishida, asar mazmuni, konfliktining yoritilishida muhim o'rinni tutadi. Sahna asarlarining yaratilishida teatr rassomligi (ssenografiya)ning hissasi katta. Rassom asar mazmuni va rejasi yechimidan kelib chiqib, dekoratsiya yaratadi. Ta'lifda musiqaning ham o'rni katta, tomosha turi va janriga bog'liq holda u turli vazifani bajaradi: dramatik spektakllarda yordamchi vosita bo'lsa, operetta, musiqali

dramada so‘z bilan barobar huquqga ega, opera va baletda esa hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi deb ta’kidlab o‘tilgan. Demak teatrga bugun tamoshabinlarni, ayniqsa yoshlarni jalg qilish, ushbu san’at turidan bahramand qilish zarur.

Zamonaviy o‘zbek teatr san’ati tarixini o‘rganish, yoshlarning boy ma’naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni o‘zlashtirib, milliy teatr an’analarini izchil davom ettirishi muhim vazifalaridan hisoblanadi. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o‘n, yuz barobar ko‘p foyda keltiradi. Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino, bundan ming yil oldin “Dovyurak va botir insonlar kelajakda sodir bo‘ladigan qiyinchiliklardan qo‘rqmaydi”, deb bejiz aytmagan. Azaldan yurtimiz Markaziy Osiyo mintaqasi teatr san’atiga karvonboshilik qilgan, o‘ziga xos ijodiy labaratoriya vazifasini bajargan. Endilikda milliy madaniy merosni o‘rganish borasidagi tajribasi va salohiyatini ishga solib, yangi ijodiy izlanishlari va amaliy tajribalari bilan mintaqa teatrlarining eng oldingi safida bo‘lmog‘i mumkin va shartdir. Xalqimiz boy milliy madaniy merosi mazmunida komil inson haqidagi qarashlar va orzu-umidlar jamlanganki, uning tub mazmuni tolerantlik va bag‘rikenglikka asoslangan. Shunday ekan, og‘zaki va yozma merosga aylangan milliy epos mintaqa teatrlarining o‘ziga xos va mos yo‘lini topishda yetakchi yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi lozim. Bu kelajakda o‘zining samarali natijasini berishiga ishonamiz. Bugungi kunda jamiyatimiz ijtimoiy madaniyatini ko‘taradigan, ruxiyatini mustahkamlaydigan va xalqning bo‘layotgan islohotlarni yanada teran tushunishga ko‘mak bo‘luvchi spektakllarga ehtiyoj kattadir. Bundan asosiy ko‘zlangan maqsad yoshlarning tarbiyasini mustahkamlash ularni katta hayotga tayyorlash. Xalqimiz orasidagi eng salbiy odatlardan biri bu loqaydlikdir. Yurtimizning ko‘p joylarida bejiz ogohlik-davr talabi deb yozib qo‘yilmagan zero loqayd odam ko‘plab nohushliklarni keltirib chiqaradi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san’at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ijodkor ziylilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Bugungi kunda yoshlарimiz, o‘quvchilar, oliy ta’lim muassasalari talabalarining teatr san’atiga bo‘lgan e’tibori, qiziqishlarini oshirmog‘imiz lozim. Ertamiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni teatr tomoshalari orqali ta’limiy-tarbiyaviy tushunchalarini, tasavvur olamini boyitishimiz mumkin bo‘ladi. Imkon qadar teatr san’atining ahamiyati haqida yoshlar, ularning ota-onalariga ma’lumot, tushunchalar berib targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish lozim. Chunki, farzandlarimiz teatr,

sahna asarlarini jonli tomosho qilish orqali o‘zlariga ma’naviy ozuqa olishadi. Teatrlarimizda sahnalashtirilayotgan sahna asarlarining asosiy maqsadi ham kelajak yosh avlodni ma’naviy barkamol, yetuk insonlar qilib, ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashdan iborat bo‘lmog‘i kerak.

So‘nggi yillarda barcha sohalar qatori madaniyat tizimida, jumladan, teatrlarimiz hayotida ham tub o‘zgarishlar amalga oshirilayotganligi barchamizga ma’lum. Yangi O’zbekiston Yoshlari ham ,bugungi kunda, o’z iqtidorlarini namoyon qilib,xalqimiz mehrini qozonmoqda. Yoshlarimiz uchun barcha imkoniyat eshiklari ochiq, va ular bundan oqilona foydalanishmoqda. Ushbu sohaga mehr va havas qo‘ygan yoshlarimizning iste’dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish uchun ijodiy tanlov va festivallar o‘tkazilmoqda, yangi ta’lim dargohlari bunyod etilmoqda. Hududlarimizda madaniyat yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarining filiallari ochilmoqda, ularga qabul kvotalari oshirilmoqda, kam ta’minlangan oilalarga mansub iste’dodli qizlarimizga alohida imtiyozlar berilmoqda. Bugun teatrlar yosh dramaturglarni kashf etish ishlariga ham alohida e’tibor qarata boshladi. Zero, teatrning nufuzini oshirish, sara asarlarni sahnalashtirishda kuchli, professional dramaturgiya asosiy o‘rin tutadi. Shu ma’noda bizga qalami o’tkir, chinakam dramaturglar kerak. Bu esa teatrlarning yoshlar bilan qay darajada ish olib borishiga bog‘liq bo‘ladi. O‘ylaymizki, bugun hayot bo‘lgan teatrimiz darg‘alari boshlab bergen ishlarni yoshlarimiz yana-da go‘zal holatda davom ettiradilar.Yuqoridagi fikr-mulohazalarni amalga oshirish maqsadida o‘z navbatida bizning yoshlarimiz musiqali drama teatri bilan o‘zaro madaniy-ma’rifiy aloqalarini, ijodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Ijodiy hamkorlikni mustahkamlash uchun bir qancha samarali ijodiy va amaliy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Yoshlarimiz ma’lum muddatlarda teatrda sahnalashtiriladigan har bir spektakllarda ishtirok etish uchun tashrif buyuradilar. Ular tomosha qilgan spektakllaridan olgan ta’surotlarini dars jarayonida nazariy tahlil qilib ijobjiy natijalarga erishilmoqda. Shuningdek, Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish yo’nalishi talabalari o‘quv amaliyotlarini ham teatrda amalga oshiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O‘qituvchi. 1993.
2. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgasha ta’lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
3. Sodiqova SH.A. Maktabgasha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni 2013
4. Kayumova N. Maktabgasha pedagogika. T.: TDPU 2013;